



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayaviddinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**QURILISH SANOATI KORXONALARI IQTISODIY BARQARORLIGINI STATISTIK
BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ
СТАТИСТИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ**

**IMPROVING THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS FOR
STATISTICAL EVALUATION OF ECONOMIC SUSTAINABILITY OF
CONSTRUCTION INDUSTRY ENTERPRISES**

Tursunboy Umarov Sayfiddin o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrası assistenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan. Qurilish sanoatining tarmoq xususiyatlari tahlil qilinib, an’anaviy yondashuvlardagi kamchiliklar va zamonaviy talablar o‘rtasidagi tafovutlar asoslangan. Tadqiqot doirasida qurilish korxonalari barqarorligiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tizimi klassifikatsiya qilingan hamda soha korxonalarining iqtisodiy barqarorlik darajasini kompleks baholashga imkon beruvchi yangi integral ko‘rsatkich (Integral Index of Construction Economic Sustainability — ICES) va uning tarkibiy sub-indekslari shakllantirilgan. Tavsiya etilgan metodologiya tarmoq korxonalarining retrospektiv tahlilini yuritish hamda hududiy qurilish klasterlarining raqobatbardoshligini statistik baholash uchun ilmiy zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: qurilish sanoati, iqtisodiy barqarorlik, statistik baholash, integral indeks, sub-indekslar, raqamli iqtisodiyot, qurilish klasterlari, multiplikator samarasi.

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы статистического исследования экономической устойчивости предприятий строительной отрасли в контексте цифровой трансформации и структурных изменений. Анализируются характеристики строительной отрасли, выявляются недостатки традиционных подходов и различия между современными требованиями. В рамках исследования классифицируется система внутренних и внешних факторов, влияющих на устойчивость строительных предприятий, и формируется новый интегральный показатель (Интегральный индекс экономической устойчивости строительства — ИКЭС) и его структурные субиндексы, позволяющие проводить комплексную оценку уровня экономической устойчивости предприятий отрасли. Предложенная методология создает научную основу для проведения ретроспективного анализа предприятий отрасли и статистической оценки конкурентоспособности региональных строительных кластеров.

Ключевые слова: строительная отрасль, экономическая устойчивость, статистическая оценка, интегральный индекс, субиндексы, цифровая экономика, строительные кластеры, мультипликативный эффект.

This article highlights the theoretical and methodological bases of statistical research on the economic sustainability of construction industry enterprises in the conditions of digital transformation and structural changes. The sectoral characteristics of the construction industry are analyzed, and the gaps between traditional approaches and modern requirements are substantiated. Within the scope of the research, the system of internal and external factors affecting the sustainability of construction enterprises is classified, and a new integral indicator (Integral Index of Construction Economic

Sustainability — ICES) and its component sub-indices are formed, which allow a complex evaluation of the economic sustainability level of the industry enterprises. The proposed methodology creates a scientific framework for conducting a retrospective analysis of industry enterprises and statistically evaluating the competitiveness of regional construction clusters.

Keywords: construction industry, economic sustainability, statistical evaluation, integral index, sub-indices, digital economy, construction clusters, multiplier effect.

Jahon xo‘jaligida ro‘y berayotgan chuqur tarkibiy transformatsiyalar va raqamli iqtisodiyotning shiddatli rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning drayveri hisoblangan kapital yaratuvchi tarmoqlarni barqaror rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Xususan, infratuzilmani shakllantiruvchi, investitsiyalarni moddiylashtiruvchi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi tarmoq — bu qurilish sanoatidir. Globallashuv jarayonlarining kuchayishi, resurslar taqchilligi va makroiqtisodiy noaniqliklar sharoitida qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash hamda uning ko‘rsatkichlar tizimini mukammal statistik tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy va tarkibiy islohotlar natijasida qurilish sanoatida barqaror o‘sinh sur‘atlari va institutsional o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Sohaga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, urbanizatsiya darajasining jadallashishi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan institutsional qulayliklar qurilish ishlari hajmining yuqori sur‘atlarda o‘shishini ta‘minlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda respublika bo‘yicha jami 313,8 trln so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sinh sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,2 foizni tashkil etgan. Ta‘kidlash joizki, 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 108,8 foizga teng bo‘lgan edi. Tarkibiy jihatdan tahlil qilinganda, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, binolar va inshootlar qurish, shuningdek, fuqarolik obyektlari qurilishi yo‘nalishlarida dinamik o‘sinh tendensiyasi saqlanib qolgan.

Biroq, makroiqtisodiy darajadagi ushbu yuqori o‘sinh sur‘atlari mikro va mezon darajada, ya‘ni alohida qurilish korxonalari va hududiy majmualar kesimida har doim ham bir xil iqtisodiy barqarorlikni ifodalamasligi mumkin. Raqobat muhitining keskinlashishi, xomashyo va materiallar narxlarining o‘zgaruvchanligi, innovatsion va raqamli texnologiyalarning (masalan, BIM — Building Information Modeling) joriy etilish darajasining pastligi hamda malakali inson kapitali taqchilligi ko‘plab qurilish korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik tadqiq etishning amaldagi uslubiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, tarmoqning o‘ziga xos konyuktura xususiyatlarini hisobga oluvchi zamonaviy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ularni integral baholash usullarini takomillashtirish obod va strategik zaruriyatdir.

Iqtisodiy barqarorlik va uni baholash metodologiyasi uzoq yillardan buyon jahon iqtisodiyot fani va statistik amaliyotining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. «Barqarorlik» tushunchasi dastlab fundamental iqtisodiy nazariyalarda tizimning tashqi va ichki distress omillar ta‘siriga bardosh berish hamda o‘zining muvozanat holatini saqlab qolish qobiliyati sifatida talqin qilingan. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan korxonalarning iqtisodiy barqarorligi muammolari A.Sen [1], P.Townsend [2], M.Todaro va S.Smith [3] kabi olimlarning fundamental tadqiqotlarida makro va mikroiktisodiy rivojlanish kontekstida o‘rganilgan.

Qurilish tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari, kapital sig‘imliliigi va uning iqtisodiy o‘sinh bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalari MDH davlatlari olimlaridan V.V. Buzyrev, M.I. Kamenskiy, N.A. Falchev, shuningdek, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Sh.X. Nazirov, S.R. Qodirov, N.G‘. Karimov, T.T. Shodiyevlarning ishlarida chuqur tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlar tarmoq iqtisodiyotini tahlil qilishda muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qilsa-da, raqamli transformatsiya, BIM texnologiyalari va ekonometrik modellashirishning zamonaviy talablari nuqtai nazaridan qurilish korxonalari barqarorligini kompleks (integral) statistik baholash mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan.

Amaldagi statistik uslubiyotlar ko‘p jihatdan an‘anaviy moliyaviy hisobot ma‘lumotlariga (likvidlik, rentabellik, kapital tuzilishi) tayanadi. Vaholanki, qurilish korxonasining iqtisodiy barqarorligi faqatgina moliyaviy barqarorlik bilan cheklanib qolmasdan, balki texnologik yangilanish, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi, inson kapitali va raqamli innovatsiyalarning integratsiyalashganlik darajasi kabi ko‘plab noliyaviy (nomoliyaviy) omillarga ham bevosita bog‘liqdir. Bu esa statistik ko‘rsatkichlar tizimini tizimli va ko‘p omili agregatlash asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistika tahlili, omili klassifikatsiya, ekspert baholash usuli va kompleks integral modellashtirish prinsiplaridan foydalanildi. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini baholash uchun an‘anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, tarmoqning barcha spesifik xususiyatlarini qamrab oluvchi va 5 ta fundamental tarkibiy blokdan iborat bo‘lgan integral ko‘rsatkich — Qurilish Sanoati Iqtisodiy Barqarorligi Integral Indeksi (ICES — Index of Construction Economic Sustainability) metodologiyasi ishlab chiqildi.

ICES indeksini shakllantirish uchun quyidagi sub-indekslar tizimi va ularni matematik xarakterlovchi birlamchi statistik o‘zgaruvchilar majmuasi aniqlandi:

- I_{ms} (Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlik sub-indeksi): Kor-cheklangan likvidlik koeffitsiyenti, avtonomiya koeffitsiyenti, aktivlar va kapital rentabelligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning mutanosibli ko‘rsatkichlari.

- I_{ic} (Ishlab chiqarish va quvvatlardan foydalanish sub-indeksi): Asosiy vositalarning yangilanish va eskirish koeffitsiyentlari, fond unumdorligi, qurilish-montaj ishlarining fizik o‘rish sur‘ati.

- I_{at} (Asosiy texnik vositalar va moddiy ta‘minot sub-indeksi): Qurilish korxonalarining zamonaviy ixtisoslashgan texnika, mashina va uskunalar bilan qurollanganlik darajasi, logistik ta‘minot zanjirining barqarorligi.

- I_{mi} (Modernizatsiya va innovatsiyalar sub-indeksi): Soha korxonalariga raqamli texnologiyalar (BIM, ERP tizimlari), energiya tejamkor usullar va innovatsion qurilish materiallarining joriy etilish koeffitsiyenti.

- I_{bi} (Bandlik va inson kapitali sub-indeksi): Muhandis-texnik xodimlarning ulushi, xodimlarning malaka oshirish davriyligi, yangi barqaror ish o‘rinlari yaratilishi dinamikasi va mehnat unumdorligi.

Har bir sub-indeks tarkibiga kiritilgan birlamchi ko‘rsatkichlarni bir jinsli (o‘lchovsiz) ko‘rinishga keltirish uchun standart normallashtirish (Min-Max normalizatsiya) usulidan foydalaniladi. Stimulyator ko‘rsatkichlar (qiymati ortishi barqarorlikka ijobiy ta‘sir etuvchi) uchun:

$$Z_{ij} = \frac{X_{ij} - X_{j,min}}{X_{j,max} - X_{j,min}}$$

Destimulyator ko‘rsatkichlar (qiymati ortishi barqarorlikka salbiy ta‘sir etuvchi, masalan, eskirish darajasi) uchun:

$$Z_{ij} = \frac{X_{j,max} - X_{ij}}{X_{j,max} - X_{j,min}}$$

Normallashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida dastlab sub-indekslar (geometrik yoki arifmetik o‘rtacha qiymat usulida), so‘ngra tarmoq va ekspert guruhlar tomonidan belgilangan og‘irlik koeffitsiyentlarini (w_i) inobatga olgan holda umumiy ICES integral indeksi hisoblanadi:

$$ICES = w_1 * I_{ms} + w_2 * I_{ic} + w_3 * I_{at} + w_4 * I_{mi} + w_5 * I_{bi}$$

Takomillashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimi va metodologik yondashuv asosida respublikamiz qurilish tarmog‘ining 2021–2025-yillardagi amaliy rivojlanish dinamikasi va uning tarkibiy sub-indekslarga ta’sir darajasi statistik tahlil qilindi. O‘tkazilgan ekonometrik va statistik baholashlar asosida sub-indekslarning o‘rtacha qiymatlari va integral ICES koeffitsiyentining ko‘p variantli tendensiyasi olindi. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida qurilish sanoati subyektlarining barqarorlik holatini quyidagi mezonlar bo‘yicha tabaqalash taklif etiladi (3.1.5-jadval).

ICES Qiymati	Barqarorlik Darajasi	Iqtisodiy-Statistik Tahliliy Tavsif
0.80 – 1.00	Yuqori barqaror (Absolyut)	Korxona tashqi distresslarga o‘ta bardoshli, yuqori darajadagi raqamli texnologiyalar va mukammal inson kapitaliga ega. Multiplikator samarasi yuqori.
0.60 – 0.79	Barqaror (Normativ)	Moliyaviy va texnik holat qoniqarli, drayverlar o‘zaro mutanosib rivojlanmoqda, innovatsiyalarni joriy etish uchun qo‘shimcha investitsiya talab etiladi.
0.40 – 0.59	Past barqaror (Xatoli)	Tizimda nomutanosiblik mavjud, asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori, raqamli innovatsiyalar darajasi minimal, likvidlik cheklangan.
0.00 – 0.39	Inqirozli (Krizisli)	Korxona o‘z-o‘zini qoplash va rivojlantirish salohiyatiga ega emas. Aktivlar unumdorligi keskin past. Tizimli tarkibiy qayta qurishni talab etadi.

Andijon viloyati misolida qurilish sanoati subyektlari va hududiy klasterlarining empirik ma’lumotlari tahlil qilinganda, ICES integral koeffitsiyenti o‘rtacha 0.58–0.64 atrofida o‘zgarib turishi aniqlandi. Bu esa mintaqa qurilish sanoatining iqtisodiy barqarorligi «past barqaror»likdan «normativ barqaror»likka o‘tish pallasida ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu tizimni drayverlar kesimida tahlil qilganda, eng past ko‘rsatkichlar aynan Modernizatsiya va innovatsiyalar sub-indeksi (I_{mi}) hamda Bandlik va inson kapitali sub-indeksiga (I_{bi}) to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, qurilish korxonalarining barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashda nomoliyaviy drayverlar hozirgi kunda asosiy cheklovchi omil (bottleneck) bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘tkazilgan nazariy-uslubiy va statistik tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar shakllantirildi:

- Qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy barqarorligi ko‘p o‘lchovli stoxastik tizim bo‘lib, uni faqatgina moliyaviy rentabellik ko‘rsatkichlari orqali baholash tarmoqning real salohiyatini aks ettirmaydi. Taklif etilgan 5 blokli sub-indekslar tizimi statistik baholashning qamrov doirasini tubdan kengaytiradi.
- Integral ICES indeksi va Min-Max normalizatsiyasiga asoslangan metodologiya tarmoq korxonalarining retrospektiv tahlilini yuritish, shuningdek, Andijon viloyati misolida hududiy qurilish klasterlarining boshqa hududlarga nisbatan raqobatbardoshligini statistik taqqoslash imkonini beradi.
- Mintaqaviy qurilish klasterlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar (BIM) va inson kapitali drayverlariga investitsiyalar yo‘naltirish talab etiladi. Bu sub-indekslarning ortishi umumiy integral indeksni 18-22% gacha oshirib, multiplikator samarasi orqali turdosh tarmoqlar (qurilish materiallari sanoati, logistika, muhandislik xizmatlari) rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sen A. Development as Freedom. Monograph. — New York: Oxford University Press, 1999. — 366 p.

2. Townsend P. Poverty in the United Kingdom. Monograph. — London: Penguin Books, 1979. — 1216 p.
3. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. 13th Edition. Textbook. — Boston: Pearson Education, 2021. — 860 p.
4. Buzyrev V.V., Fedoseev I.V. Planirovanie na stroitel'nom predpriyatii. Uchebnik. — M.: Knorus, 2018. — 320 c.
5. Nazirov Sh.X. Qurilish iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. — Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015. — 280 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. 'Mehnat bozori va sanoat statistikasi' yillik to‘plamlari (2021–2025 yy.).
7. Umarov T. Andijon viloyati qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy o‘shish ssenariylari va ekonometrik modellashirish // Iqtisodiyot va ta’lim jurnali. — Toshkent, 2026. — №2. — B. 45-52.

UDK: 334.722

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH
TIZIMIDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR**

**ПРОБЛЕМЫ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В
МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИХ УСТРАНЕНИЮ**

**PROBLEMS IN THE HUMAN RESOURCE MANAGEMENT SYSTEM IN SMALL
BUSINESSES AND MODERN APPROACHES TO ELIMINATING THEM**

Rahimova Nargiza Akram qizi

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti
Inson resurslarini boshqarish yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik biznes subyektlaridagi inson resurslarini boshqarish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kichik biznes korxonalarida malakali kadrlarni jalb qilish va saqlab qolish, xodimlarni rag‘batlantirish, kasbiy rivojlantirish hamda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar o‘rganildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, HR analitika, avtomatlashtirilgan rekruting tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari va zamonaviy motivatsiya usullarining inson resurslarini boshqarish samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, inson resurslarini boshqarish, HRM, xodimlarni motivatsiyalar, raqamli texnologiyalar, HR analitika, kadrlar boshqaruvi, mehnat unumdorligi.

В данной статье проанализированы основные проблемы, возникающие в процессе управления человеческими ресурсами в субъектах малого бизнеса, а также рассмотрены современные подходы к их решению. В ходе исследования были изучены вопросы, связанные с привлечением и удержанием квалифицированных кадров, мотивацией сотрудников, их профессиональным развитием и формированием эффективной системы управления в малых предприятиях. Кроме того, освещена роль цифровых технологий, HR-аналитики, автоматизированных систем подбора персонала, платформ дистанционного обучения и